

## **TALABA YOSHLARNING ZAMONAVIY TA'LIM OLISHIDA TARBIYANING RO'LI**

**Tuxtayeva Adolat Karaboyevna**

**Xidirova Shahlo Shavkatovna**

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining tyutori

+998 99 860 63 71

**Abduhalimova Marjona Alisher qizi**

Toshkent pediatriya tibbiyot isnituti 1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti talabasi

+998971559459

### **Annotatsiya**

Zamonaviy ta'lism bu avvola bugungi internet asridagi bilim oluvchi yoshlarning ta'limg tarbiyasi bilan bog'liq bo'lan jarayon, ta'limg tarbiyani o'rghanish avvalo oiladan boshlanishi haqida fikr yuritamiz.

### **Annotation**

Modern education is a process that is primarily related to the education of young people in today's Internet age, we think that the study of education begins with the family.

### **Аннотация**

Современное образование - это процесс, который в первую очередь связан с обучением молодежи в сегодняшнюю эпоху Интернета, мы думаем, что изучение образования начинается с семьи.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, zamonaviy ta'limg, internet, bilim, yoshlar, oilada bilimsizlik xafni oldini olish, bugungi kundagi chora tadbirlar.

**Keywords:** upbringing, modern education, internet, knowledge, youth, prevention of ignorance in the family, measures of today.

**Ключевые слова:** воспитание, современное образование, интернет, знания, молодежь, профилактика безграмотности в семье, меры предосторожности на сегодняшний день.

Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz, Sh.M.Mirziyoyev. ta'limg va tarbiya borasida juda ko'p fikrlar bildirilgan ammo quydagi fikirni afzal deb bildik. Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir. Abdulla Avloniy so'zi bilan boshlashimiz avvalo bugungi kunda dunyo xamjamiyatida ta'limg-tarbiyaga juda katta e'tibor qaratilayotganligi ayni xaqiqat ekanligi, barcha zamonlarda tarbiya va ta'limg tizimida dolzarb bo'lgani kabi bizning zamonamizda xam dolzarb va baxs munozarali bo'lib turganligi ayni xaqiqatdir. Keling bu borada yuqorida fikrimizni davom ettirgan xolda Abdulla Avloniyning Turkiy guliston yoxud axloq kitobida keltirgan so'zlari bilan davom ettirsak. "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastanaging badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdir. Zeroki, Hassinu axloqiko'm amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmagg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasasi tarbiyadur. Axloqimizning binosining

July 9<sup>th</sup>, 2022

conferencezone.org

go'zal va chiroqli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas,-demishlar".<sup>1</sup>

Ta'lismi va tarbiya jarayoni bugun O'zbekistonda ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bu borada juda ko'plab islohatlar amalga oshirilishi zamonaviy ta'lismi va tarbiyaga birdek yondoshilayotganligi muammo va kamchiliklarga barxam berish borasida ko'plab ishlar qilinmoqda. Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zleri bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytildi. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lismi va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

"Bir o'yab ko'raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratilgan ulkan e'tibor tufayli emasmi? Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lismi tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda"<sup>2</sup>.

Tarbiya, ta'limga ajralmas bir qismini, yaxshi xulq esa bir qismini tashkil etib yaxshi xulqni o'z nafsimizga qarshi ishlatsak natijaga erishamiz. Jamiyatimiz uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: diyonat, g'ayrat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, intizom, vijdon, vatanni sevmoqlik, ibrat, iffat, hayo, idrok va viqor, itoat, haqiqatparastlik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va kechirilmilikdir. Ushbu fazilatlarni jamiyatda yoshlarimiz tarbiyasida oiladan boshlamas ekanmiz jamiyatimizda va davlatimizda zamonaviy ta'lismi rivojlantira olmaymiz.

Insonda doimo yaxshi xulqlarni tarbiya bilan qo'lga kiritishi uchun oilada ota-onasiga, jamiyatda muallim ustozlarimizning hikmatli nasihatlarini jon qulog'i bilan tinglavchi, doim xotirasida saqlavchi, axloqi yaxshi kishilar bilan do'stlashmoqligi, axloqi buzuq yomon kishilardan yiroq yumoqlik kabi barcha sifatlarni oiladagi tarbiya bilan zamonaviy ta'lismi bog'lashimiz kerak. Buning uchun avvalo ta'lismi va tarbiyani eng avval oiladan boshlanishligini esdan chiqarmaslik kerak.

Talaba yoshlar avvalo zamonaviy ta'lismi jarayoni haqida to'liq tushuncha olishlari va zamonaviy ta'lismi bu-avvoli bugungi internet asridagi bilim oluvchi yoshlarning ta'lismi tarbiyasi bilan bog'liq bo'lan jarayonda yoshlarning bilim darajasini yuqori darajaga ko'tarish. Dastlabki bilimni barchamizga avvalo oilada ota-onadan va məktəb deb ataluvchi bilim maskanida olamiz. Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lismi-tarbiyadan, ajdodlarimiz qoldirgan bebabu merojni o'rganishda oilada ota-onalarimiz ta'lismi maskanida esa o'qituvchilar va murabbiylarning mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Bugungi kundagi barcha yoshlarimiz deyarli har kuni internetdan foydalanishadi, kinofilmlar, musiqalarni tinglaydi, turli ma'lumotlar qidiradi, global tarmoq hayotimizga tobora chuqur kirib kelmoqda. Internet nima ekanligini bilmaydigan insonni topish juda qiyin. Butun dunyo bo'yab minglab, balki millionlab odamlar internetdan xatto televizorga nisbatan ham ko'proq foydalanadi. Kelajakda ko'pchilik uchun internet tirkchilik qilish manbaiga aylanib boradi.

"1980 yilda hech kimning hayoliga ham kelmagan. Bugun "Internet" deb ataluvchi HTML protokoli, aslida yadroviy mavzular tadqiqotlarining natijalaridir. Dunyodagi birinchi internetsayt 1990 yilda yaratilgan"<sup>3</sup>. Bu internet deb ataluvchi dastur xozirda dunyoni qamrab olganligi ayni xaqiqat.

Aniqrog'i, brauzer nima va uni qanday o'rnatish kerakligi hammda shunga o'xshash boshqa foydali ma'lumotlarni o'zichiga oluvchi oddiy bir sahifa bo'lgan xolos. Dastlab, hujjatlar almashish usuli o'yab topilgan edi. U gipersilkalardan foydalanishda jamlagan. Mana loyihamidan keyin dunyo uzra "o'rgimchak to'ri" tug'ilgan.<sup>4</sup> Ushbu kunda bizning jamiyatimizga va davlatimizga ham kirib kelgan internet bugun yoshlarimizni ham o'z domiga tortmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori O'zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to'g'risidagi nizomni va O'zbekiston Respublikasida provayderlar va abonentlarning ma'lumotlarni uzatish milliy tarmog'idan axborot olish va ulardan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida. Toshkent sh., 1999-yil 26-mart, 137-

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy T.: 2008 y. (qayta nashr [www.islom.uz](http://www.islom.uz) kutubxonasi) Turkiy guliston yoxud axloq kitobi 8-9 b.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi 30.09.2020 y. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

<sup>3</sup> [www.odam.uz](http://www.odam.uz)

<sup>4</sup> [Internet to'g'risidagi qiziqarli faktlar www.odam.uz](http://www.odam.uz)

July 9<sup>th</sup>, 2022

son”. Ushbu qonunga (3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-iyundagi 457-sonli *qarori tahririda-Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 04.06.2019-y., 09/19/457/3235-son)<sup>5</sup> o‘zgartirishlar kiritilgan. Davlatimiz va jamiyatimizning ravnaqi uchun zarur bo‘lgan bilimlarni olishda oila va ta’lim maskanida har bir yosh yigit-qizning zimmasidagi burchlaridan biri hisoblanadi. Buyuk bobo kalonimiz muhaddis “Imom al-Buxoriy: “Najot faqat ilmdadur”, deb bejiz aytmagan. Chunki bilimsizlik – jaholatdan, jaholat esa – takabburlik, mutelik va buzg‘unchilikdan kelib chiqadi”<sup>6</sup>. Bilimsizlik oqibatida ko‘plab muammolar tashvishlar kelib chiqadi. Bilimsizlikni oldini olsh uchun barcha islohatlarni jamiyatning asosiy bo‘g’ini bo‘lgan oiladan boshlashimiz, oiladagi ta’lim va tarbiyaning muhumligi barcha zamonlarda muhum xisoblanib bizning zamaonamizda esa dolzarb bo‘lmoqda. Oilada tinchlik totuvlik bo‘lsa farzandlar tarbiyasida va ta’lim oilishida yuksalish bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palasiga 24.01.2020 Murojaatnomasida ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratib quydagilarni takidlagan edi: “Sharq donishmandlari aytganidek, Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir”.<sup>7</sup> Ushbu fikirlar zamirida juda katta ma’nolar jamlangan. **O‘zimizdagi turli illatlardan ertaga emas, bugun voz kechishimiz kerak.**

Yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda bиринчи о'rinda oilada totuvlik, tinchlik, xamjihatlik, ilim marifat va diniy qadriyatlarga xurmat e'tiborlarni yoshlar ongiga singdirishda ota-onalar va ustozlarning mashaqqatli mexnatlariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini barchamiz yaxshi tasavvur qilamiz. **"Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jipslashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi"**<sup>8</sup>. Davlatimizda, jamiyatimizda, oilalarimizda, hayotimizda ta'limga, tarbiyaga, diniy qadriyatlarga ilimga, zamonaviy ta'limga etibor qaratsak barcha muammolarni bartaraf etgan bo'lamiz. Zamonaviy ta'im bu tinimsiz rivojlanib takomillashib boruvchi barcha zamon va makonni bir butun qilib o'rganishning turli yo'llarini ko'rsatuvchi tizimdir.

## Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq kitobi 8-9 b. T.: 2008 y. (qayta nashr [www.islom.uz](http://www.islom.uz) kutubxonasi)
  2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. 30.09.2020
  3. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
  4. [www.odam.uz](http://www.odam.uz) Internet to‘g’risidagi qiziqarli faktlar
  5. Copyright © 2015 — 2020. O'zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi.
  6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi 24.01.2020 y.
  7. [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)
  8. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)
  9. <https://xs.uz/uz>
  10. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)

<sup>5</sup> www.Lex.uz

<sup>6</sup> Copyright © 2015 — 2020. O‘zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi.

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan 24.01.2020 yil

<sup>8</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasidan 24.01.2020 yil